

"O'zkiyosanoat" AJ Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etdi

// 25.06.2025

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-hududiy-tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasi-da-i>



Joriy yilning 19-20-iyun kunlari Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi "Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi"da Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tdi.

Yarmarkaning asosiy maqsadi yirik tarmoq korxonalariga mahalliy kichik va xususiy biznes korxonalari tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni yetkazib berishda kooperatsiya aloqalarini yanada mustahkamlashdan iborat bo'ldi.



Ushbu yarmarka qurilish materiallari, to'qimachilik va ipakni qayta ishlash, charm-poyabzal, kimyo, neft va gaz, mashinasozlik, elektrotexnika hamda farmatsevtika sanoati uchun mahsulotlar ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashgan tarmoq va hududiy korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarni yanada mustahkamlash bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun ham yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xususan, tadbirda 200 ta korxona mingdan ziyod mahsuloti bilan ishtirok etdi.



Ta'kidlash joiz, sanoat yarmarkasida "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan 250 ga yaqin mahsulotlar ko'rgazmalar orqali namoyish etildi. Sanoat kooperatsiyasi doirasida tarmoq korxonalari tomonidan mahsulotlar sotish va sotib olish bo'yicha jami 28 ta 165 mlrd so'mlik shartnomalar imzolandi.



Talab yuqori bo'lgan va o'zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan import mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan salohiyatli kichik biznes tadbirkorlik subyektlariga batafsil axborotlar berildi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati